

## PROFILAKTIKA INSPEKTORINING BEDARAK YO'QOLGAN SHAXSLARNI TOPISHDA TEZKOR- QIDIRUV XIZMATI BILAN HAMKORLIGI

**Boboraximov Abror Baxramovich**

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Oliy ta'lifdan keyingi ta'lif  
fakulteti mustaqil izlanuvchisi*

**Zayniddinov Aziz Fazliddin o'g'li**

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi  
319-guruh kursanti*

**Annatatsiya:** Ushbu maqola orqali profilaktika inspektorining bedarak yo'qolgan shaxslarni topishda tezkor-qidiruv xizmati bilan hamkorligi tushunchasi, uning ahamiyatli jihatlari, ushbu hamkorlikni amalga oshiriuvchi subektlarga to'xtalib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** Huquqbazarlik, huquqbazarliklar profilaktikasi, profilaktika inspektorlari, bedarak yo'qolgan shaxs, tezkor-qidiruv xodimi, tezkor- qidiruv xizmati hamkorlik, profilaktik chora-tadbirlar

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi ma'rzasida "Davlat organlari va mansabdar shaxslar faoliyatiga baho berishda qonuniylikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari qanday himoya qilinayotgani biz uchun eng asosiy mezon bo'lishi shart. Xalq davlat organlariga emas, balki davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerak"<sup>29</sup> - deya ta'kidlagan edi.

Shu maqsadda jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylik va huquq-tartibotni mustahkamlash davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Jinoyat alomatlarini va jinoyat sodir etgan shaxslarni topish, jinoyat ishi yuzasidan dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda, zarur choralar ko'rish yuzasidan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlar tomonidan amalga oshirilgan tezkor-qidiruv faoliyati natijalari muhim o'rinn tutadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish tarixi guvohlik berishicha, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash, oldini olish, bartaraf etish va fosh etish, yashiringan jinoyatchilarni qidirib topish uchun faqat oshkora jinoyat-prosessual va boshqa vositalar yetarli bo'lmasdan, boshqa samarador vositalarni qo'llash taqozo etiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun nafaqat sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish, balki jinoiy hodisa va jarayonlar rivojlanishi ustidan nazorat o'rnatish muhim vazifa hisoblanadi.

"Xabeas Korpus" institutini yanada kengaytirish, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish muhim sanaladi. Xalqaro huquq va xorijiy amaliyotda o'zining ijobjiy natijasini berayotgan amaliyotni milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda qonunchiligidimizga implementasiya qilish o'zining ijobjiy natijasini beradi. Jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlarini belgilab bergen 2022 — 2026-yillarga mo'ljalangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul

<sup>29</sup> Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma olti yilliga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi.

qilinishi islohotlarning tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan bosqichi bo‘ldi<sup>30</sup>. Shaxsning huquq va erkinliklariga so‘zsiz rioya etilishini ta’minlash, prosessual harakatlarning sifatini oshirish, jinoyat prosessida dalillarni to‘plash va mustahkamlash, ularga baho berish tizimini ilg‘or xorijiy tajribada keng qo‘llaniladigan isbotlash standartlarini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqilmoqda.

**Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish** – agar fuqaroning qayerdaligi haqida uning yashash joyida bir yil davomida ma’lumotlar bo‘lmasa, manfaatdor shaxslarning arizasiga muvofiq sud bu fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topishi mumkin.

Yo‘qolgan shaxs to‘g‘risida oxirgi ma’lumotlar olingan kunni aniqlash mumkin bo‘lmasa, bedarak yo‘qolgan deb hisoblash muddati yo‘qolgan shaxs to‘g‘risida oxirgi ma’lumotlar olingan oydan keyingi oyning birinchi kunidan, bu oyni belgilash mumkin bo‘lmasan taqdirda esa — keyingi yilning birinchi yanvaridan boshlanadi.

**Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish oqibatlari** - bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaroning mol-mulkini doimiy suratda boshqarib turish zarur bo‘lsa, bu mol-mulk sudning qaroriga muvofiq vasiylik va homiylik organi tomonidan belgilanadigan va ushbu organ bilan tuziladigan ishonchli boshqaruv to‘g‘risidagi shartnomaga asosida ish olib boradigan shaxsga topshiriladi.

Ushbu mol-mulkdan bedarak yo‘qolgan shaxs qonunga muvofiq boqishi kerak bo‘lgan fuqarolarga ta’minot beriladi va uning soliqlar va boshqa majburiyatlar bo‘yicha qarzları to‘lanadi.

Vasiylik va homiylik organi yo‘qolgan fuqaroning qayerdaligi to‘g‘risida ma’lumot olingan kundan boshlab bir yil o‘tganga qadar ham uning mol-mulkini muhofaza qiluvchi shaxsni belgilashi mumkin.

Shaxsni bedarak yo‘qolgan deb topishning ushbu moddada nazarda tutilmagan oqibatlari qonun bilan belgilanadi.

#### **Fuqaroni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qarorning bekor qilinishi**

Bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaro qaytib kelgan yoki uning turar joyi aniqlangan taqdirda, sud uni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qarorni bekor qiladi. Sudning qarori asosida fuqaroning mol-mulkini boshqarish bekor qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik qonunchiligining 35-moddasida shaxsni bedarak yo‘qolgan deb toppish asosi berib o‘tilgan

Bedarak yo‘qolgan deb topilgan fuqaro qaytib kelgan yoki uning turar joyi aniqlangan taqdirda, sud uni bedarak yo‘qolgan deb topish haqidagi qarorni bekor qiladi. Sudning qarori asosida fuqaroning mol-mulkini boshqarish bekor qilinadi.

**Profilaktika inspektorining bedarak yo‘qolgan shaxslarni topishda tezkor- qidiruv xizmati xodimlari bilan quydagи yo‘nalishlarda hamkorlik qiladi.**

- huquqburzaliklarning profilaktikasiga doir davlat, hududiy, idoraviy hamda idoralararo dasturlarning bajarilishida bevosita ishtirok etidi;

- huquqburzaliklar profilaktikasini amalga oshiradi, huquqburzaliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlaydi, ularni bartaraf etish choratadbirlarini ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

<sup>30</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar kungi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni.

- maxsus profilaktik tadbirlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi;

ayrim turdag'i huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus profilaktik tadbirlarni ishlab chiqadi hamda uni amalga oshirish yuzasidan yuqori turuvchi organ va huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmatiga taklif va tavsiyalar kiritadi;

jinoyatlarni fosh etadi, shuningdek tergovga, sudga kelishdan bo'yin tovlayotgan shaxslar hamda bedarak yo'qolgan fuqarolar qidiruvini tashkil etadi va amalga oshiradi;

g'ayriijtimoiy xulq-atvorga ega, huquqbuzarlik sodir etgan yoki huquqbuzarliklardan jabrlanganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarini ko'radi;

Profilaktika inspektoriga biriktirilgan ma'muriy hududida jinoyatlarni sodir ztilishidan barvaqt oldini olish, jinoyatlarni sodir etilishini sababi va sharg-sharoitlarni o'rganib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarni aniq va puxta tuzish lozim bo'ladi. Jinoyatlar sodir etilishini tahlil etgan holda, profilaktika inspektori ma'muriy hududda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va fosh etish hamda ularni barvaqt oldini olish faoliyati bilan bir qatorda jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan:

jinoyat yoki huquqbuzarlik sodir etishga moyil, tarbiyasi og'ir voyaga yetmagan va yoshlarni, shuningdek voyaga yetmaganlarni xukukbuzarlikka yoki gayriijtimoiy xarakatlarga jalb qilayotgan shaxslarni aniqlash maqsadida profilaktik tadbirlar rejatashtirish va o'tkazish;

- diniy ekstremistik oqimlarga mansub shaxslarni turmush tarzini doimiy nazoratga olish, ularning oilalarida tarbiyalanayotgan voyaga yetmagan farzandlarini bu oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga yo'l ko'ymaslik maksadida maqsadli profilaktik tadbirlar o'tkazib borish;

- noqonuniy faoliyat ko'rsatayotgan masjidlarni, xujralarni va diniy ekstremizmni tashviqot qiluvchi shaxslarni hamda ularning tarafdarlarini aniqlash borasida profilaktik tadbirlarni o'tkazish;

- fuqarolar tomonidan noqonuniy ravishda saqlanayotgan o'q-otar qurollar, portlovchi moddalar, tayyorlanayotgan va tarqatilayetgan diniy ekstremistik goyalarni targib qiluvchi adabiyotlarni aniqlash borasida tezkor tadbirlar o'tkazish;

- O'zbekiston Respublikasi qonunlarini buzgan va ularga amal qilishni istamagan huquqbuzarlar, ularni buzishga ko'proq moyil bo'l-gan shaxslar, shu jumladan ma'muriy nazoratda turuvchi ilgari sud-lan-gan shaxslar orasi-da huquqiy tarbiyani yaxshilash borasida samarali profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish davr talabidir.

Shu bilan bir qatorda Respublika bo'yicha kidirilayotgan shaxslarni, xususan tergov organlaridan yashirinib yurgan shaxslarni, bedarak yo'qolganlarni, maxsus davolash muassasalaridan, maxsus tarbiya muassasalaridan kochgan o'smirlar va boshqa toifadagi shaxslarni aniqlashda tezkor-qidiruv xizmati xodimlari bilan hamkorlikda ishni tashkil etishlari ham hududda hukukbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini yaxshilashga zamin yaratadi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi siyosatni amalga oshirish, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishda ichki ishlar organlarining o'ziga xos o'rni bo'lib, ular keng ko'lamli ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, voyaga yetmagan va yoshlarni turli salbiy

ta'sirlar, diniy ekstremizm va terrorizm, giyohvandlik va surunkali ichkilikbozlik, ommaviy madaniyat va boshqalardan asrash, jinoyatchilikka qarshi kurashda boshqa sub'ektlar bilan hamkorlik qilish kabi vazifalar yuklatilganki, ularni bajarishda sohaviy xizmatlar o'rtasidagi hamkorlik va vazifalarni mukammal darajada taqsimlash o'ta muhim vazifalardan biridir.

Shu boisdan bugungi kunda ichki ishlar organlarining barcha tizimlarida sifat jihatdan butunlay yangicha asosda shakllantirildi, huquqbuzarliklarning profilaktikasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash chora-tadbirlari ko'rilib, yangi usul va shakllarda ishni olib borilishi belgilandi va amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda ichki ishlar organlarining kasbiy tayyorgarligi va malakasini shakllantirish borasida ham alohida vazifalar belgilandiki, bularning barchasi ichki ishlar organlari oldida turgan vazifalarni to'liq bajarilishini ta'minlaydi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 31 avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining yigirma olti yilliga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvar kungi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni.
3. Боборахимов А. Б. Ички ишлар органлари ва фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ҳамкорлигини "Хавфсиз маҳалла" тамойили асосида самарали ташкил этиш механизмлари //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – №. 1. – С. 99-107.
4. Эгамбердиев В. О. Жиноятнинг махсус субъекти ва унинг жиноий жавобгарлигига доир хуқуқий нормаларни такомиллаштириш масалалари //Journal of innovations in scientific and educational research. – 2022. – Т. 5. – №. 4. – С. 518-527.
5. Боборахимов А., Қавомов А. Ҳукуқбузарликлар профилактикасида "Ижтимоий профилактика" тушунчаси ва уни амалга оширишдаги чора-тадбирлар тизими //Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 34-38.
6. Ўроқов Ж. Р. Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва хукуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш ва амалга оширишнинг муаммолари //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 21. – №. 4. – С. 44-50.
7. Боборахимов А. Б. Ички ишлар органлари профилактика инспекторларининг "сурункали алкоголизм, гиёхвандлик ёки захарвандликка мубтало бўлган шахслар" ни мажбурий даволашга юбориш фаолияти //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 334-338.